



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV» AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG'I

2024 yil “ 18 ” 01 06 – son

Toshkent shahri

**“Jamiyat Xarid komissiyasi tarkibiga
o'zgartirish kiritish to'g'risida”**

Moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligini ta'minlash, ochiqlik va shaffoflik hamda korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida,

B U Y U R A M A N

1. “O'zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining xarid komissiyasi tarkibiga 1-ilovaga muvofiq o'zgartirish kiritilsin.

2. Moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligini ta'minlash, ochiqlik va shaffoflik hamda Xarid jarayonlari ustidan nazorat olib borish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlash maqsadida, Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi xodimlari xarid jarayonlariga kuzatuvchi sifatida kiritilsin.

3. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini boshqaruv raisi o'rinbosari - Xaridlar bo'yicha direktor (Kogay) zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'lim boshlig'i D. Saidaxborovning 2024 yil 15 yanvardagi bildirgisi.

Boshqaruv raisi

Sh. Alimov

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati ehtiyojlari uchun tovarlar
(xizmatlar, ishlar) yetkazib beruvchilarini eng yaxshi takliflarni tanlash va
tenderni elektron shaklda o‘tkazish yo‘li bilan aniqlash bo‘yicha yuqorida
o‘zgartirish kiritilgan doimiy faoliyat yurituvchi
XARID KOMISSIYASI TARKIBI**

№	F.I.SH.	Lavozimi	Vakolati
1.	R. V. Radjapov	Boshqaruv raisi o‘rinbosari – moliyaviy ishlar bo‘yicha direktor	Komissiya raisi
2.	Sh. E. Sirajov	Boshqaruv raisi o‘rinbosari – bosh muhandis	Komissiya raisi o‘rinbosari
3.	E. X. Ergashev	Boshqaruv raisi o‘rinbosari – bosh geology	Komissiya a‘zosi
4.	Y. Sh. Zakirov	Kapital ta‘mirlash va ijtimoiy masalalar bo‘yicha department direktori	Komissiya a‘zosi
5.	S. M. Kaxarov	Iqtisodiyot va moliyalashtirish bo‘limi boshlig‘i	Komissiya a‘zosi
6.	E. A. Shigapov	Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot xalqaro standartlari bo‘limi boshlig‘i	Komissiya a‘zosi
7.	Z. R. Turdijanov	Texnik siyosat boshqarmasi boshlig‘i	Komissiya a‘zosi

Izoh: 1. Xarid komissiyasining raisi bo‘lmagan taqdirda uning vazifalarini o‘rinbosar bajaradi;
2. Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.